“TARBIYA” DARSLARIDA “ART-FEST” VA MISOLLAR ORQALI O‘QITISH ASOSIDA BAG‘RIKENGLIK VA MEHNATSEVARLIKNI SHAKLLANTIRISH MODELI

G‘oyibnazarov Rahmatilla
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Otabekova Sevinch
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Dinshunoslik yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya. Maqolada “Art-fest” va misollar orqali o‘qitish (exemplary teaching) usullarini birlashtirib, “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarda bag‘rikenglik va mehnatsevarlik ko‘nikmalarini shakllantirish modeli loyihalanadi. Bu sifatlar ko‘p hollarda nasihat orqali tushuntiriladi va o‘quvchi ularni faoliyatda sinab ko‘rmaydi. Ijtimoiy o‘rganish nazariyasi, axloqiy namuna va san’at ta’limi bo‘yicha eksperimental tadqiqotlar hamda xurofotning oldini olish dasturlari meta-tahlili qiyosiy o‘rganildi. Har bir usul qaysi sifatga qanday yo‘l bilan ta’sir qilishi aniqlanib, ular misolni tahlil qilish, ijodiy talqin, Art-fest va refleksiya bosqichlaridan iborat modelga birlashtirildi. Har bir bosqich uchun kuzatiladigan ko‘rsatkichlar taklif etildi. Model hali tajriba-sinovdan o‘tkazilmagan.

Kalit so‘zlar: bag‘rikenglik, mehnatsevarlik, “Tarbiya” fani, Art-fest, misollar orqali o‘qitish, axloqiy namuna, san’at ta’limi.

Аннотация. В статье проектируется модель формирования толерантности и трудолюбия у учащихся на уроках предмета «Тарбия» на основе сочетания методов «Арт-фест» и обучения на примерах (exemplary teaching). Эти качества часто объясняются через назидание, и ученик не проверяет их в собственной деятельности. Сравнительно изучены теория социального научения, исследования моральных образцов, экспериментальные работы по художественному образованию и метаанализ программ профилактики предубеждений. Определено, как каждый

метод влияет на каждое качество, и методы объединены в модель из этапов анализа примера, творческой интерпретации, Арт-феста и рефлексии. Для каждого этапа предложены наблюдаемые показатели. Модель ещё не прошла опытную проверку.

Ключевые слова: толерантность, трудолюбие, предмет «Тарбия», Арт-фест, обучение на примерах, моральный образец, художественное образование.

Abstract. The article designs a model for developing tolerance and diligence in pupils in the school subject “Tarbiya” by combining the “Art-fest” with teaching through examples (exemplary teaching). These qualities are often taught through moral advice, and pupils rarely test them in their own activity. Social learning theory, research on moral exemplars, experimental studies of arts education and a meta-analysis of prejudice prevention programmes were compared to identify how each method can affect each quality. The methods are combined into a four-stage model: analysing an example, creative interpretation, the Art-fest itself, and reflection. Observable indicators are proposed for each stage. The model has not yet been tested in practice.

Keywords: tolerance, diligence, character education, Art-fest, teaching through examples, moral exemplars, arts education.

KIRISH

“Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonun ta’lim va tarbiyaning uzviyligini davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri deb belgilagan (O‘zbekiston Respublikasi, 2020a). 2020/2021 o‘quv yilidan maktablarda bosqichma-bosqich joriy etilgan “Tarbiya” fani (O‘zbekiston Respublikasi, 2020b) shu tamoyilni dars darajasida amalga oshirishga xizmat qiladi. Bag‘rikenglik va mehnatsevarlik bu fanning qadriyatlari qatorida turadi. O‘quvchi ularning ta’rifini aytib berishi mumkin, ammo sinfdoshi bilan kelisha olmay qolganda yoki ishi chiqmay qolganda o‘zini qanday tutishi boshqa masala.

Biri insonga, ikkinchisi ishga munosabatni bildirsa-da, maktabda bu sifatlar ko‘pincha bir vaziyatda sinovdan o‘tadi: guruh ishida o‘quvchi o‘ziga yoqmaydigan fikrni eshitishi va shu bilan birga o‘z ulushini oxiriga yetkazishi kerak. YUNESKO

deklaratsiyasida bag‘rikenglik loqaydlik yoki yon berish emas, o‘zgalar huquq va erkinligini tan olishga asoslangan faol munosabat deb ta’riflanadi (UNESCO, 1995). Bunday munosabat birgalikdagi faoliyatda shakllanadi.

Misollar orqali o‘qitish A. Banduraning ijtimoiy o‘rganish nazariyasiga tayanadi: inson xulqning katta qismini boshqalarni kuzatib o‘rganadi, ammo namunani takrorlashi uchun e’tibor, eslab qolish, takrorlay olish va motivatsiya kerak (Bandura, 1977). L. Zagzebski axloqiy tushunchalar ta’rif orqali emas, namunali shaxslarga havas qilish orqali egallanishini asoslagan (Zagzebski, 2017). V. Sanderse esa namuna ko‘pincha o‘qituvchining shaxsiy ibratiga tenglashtirilishini tanqid qilgan (Sanderse, 2013).

“Art-fest”ga yaqin san’at ta’limi bo‘yicha esa eksperimental dalillar bor. Xyustonda tasodifiy taqsimlash asosida o‘tkazilgan yirik tadqiqotda san’at mashg‘ulotlariga jalb qilingan o‘quvchilarning hissiy empatiyasi oshgan, intizomiy qoidabuzarliklari kamaygan (Bowen & Kisida, 2023). Jonli teatr spektakliga olib borilgan o‘quvchilarda bag‘rikenglik va o‘zgalar nuqtai nazarini anglash ko‘rsatkichlari nazorat guruhidagidan yuqori bo‘lgan (Greene et al., 2018). Biroq bu ikki usulni birlashtirib, ularning har biri qaysi sifatga qanday ta’sir qilishini ko‘rsatgan ishga duch kelmadik. Tadqiqot maqsadi shu ta’sir yo‘llarini aniqlash va usullarni “Tarbiya” darslari uchun yagona modelga birlashtirishdir.

METODLAR

Tadqiqot nazariy-metodologik xarakterga ega: tajriba-sinov ma’lumotlari hozircha yo‘q, shuning uchun natijalarda empirik ko‘rsatkichlar emas, tahlil asosida ishlab chiqilgan model va baholash mezonlari beriladi. Manbalar axloqiy namuna nazariyasi, san’at ta’limining ijtimoiy natijalari va bag‘rikenglik hamda qat’iyatlilikka oid tadqiqotlardan olindi. Taqriz asosida chop etilgan, eksperimental yoki kvazi-eksperimental dizayndagi ishlar va meta-tahlillarga ustunlik berildi, chunki tarbiyaviy usullar haqida samaradorlik da’volari ko‘p, ularni tasdiqlaydigan solishtirma ma’lumot esa kam. Qiyosiy tahlilda har bir usul o‘quvchida qanday jarayonni ishga tushirishi, ikki sifatga qaysi yo‘l bilan ta’sir qilishi va noto‘g‘ri qo‘llanganda qanday xavf tug‘dirishi bo‘yicha solishtirildi. Pedagogik

modellashtirish bu xulosalarni o‘qituvchi rejalashtira oladigan bosqichlar va kuzatiladigan ko‘rsatkichlarga aylantirish uchun tanlandi.

NATIJALAR

Atamalarni aniqlashtirish. “Exemplary teaching” atamasi bir necha ma’noda ishlatiladi. Ingliz tilidagi adabiyotda u ko‘pincha “yuqori sifatli o‘qitish”ni bildiradi. Nemis didaktikasida “das Exemplarische” kengroq qonuniyatni ochib beradigan bitta xarakterli holatni chuqur o‘rganishni anglatadi (Klafki, 2000), axloqiy tarbiya adabiyotida esa namunali shaxs orqali tarbiyalash ma’nosi ustun (Sanderse, 2013). “Tarbiya” darsiga oxirgi ikki ma’no kerak: misol ham namunali shaxs, ham o‘quvchi o‘z hayotiga ko‘chira oladigan xarakterli vaziyat bo‘lishi lozim. “Art-fest” deganda o‘quvchilar guruhlarda bir mavzu bo‘yicha tayyorlagan ijodiy ishlarini (rasm, sahna ko‘rinishi, she’r, plakat) festival shaklida taqdim etib, bir-birining ishini muhokama qiladigan mashg‘ulot tushuniladi.

Qanday misol ta’sir qiladi. Usulning eng nozik joyi misol tanlash ekan. X. Lin-Zigler va hammualliflari 402 nafar 9–10-sinf o‘quvchisini uch guruhga ajratgan: biri Eynshteyn, Kyuri va Faradeyning faqat yutuqlari haqida, qolgan ikkitasi ularning ilmiy va hayotiy qiyinchiliklari haqida o‘qigan. Keyinchalik qiyinchiliklar haqida o‘qiganlarning fan bo‘yicha baholari yuqoriroq bo‘lgan, ayniqsa past o‘zlashtiradigan o‘quvchilarda, faqat yutuqlar haqida o‘qiganlarniki esa pasaygan (Lin-Siegler et al., 2016). Ta’sir kichik bo‘lgan va motivatsiya so‘rovnomalarida farq chiqmagan. 8-sinf o‘quvchilari tengdoshlar misolini tarixiy shaxslar misoliga qaraganda taqlid qilish osonroq deb baholagan va u ko‘ngilli ishga ko‘proq undagan (Han et al., 2017). D. Shank va hammualliflari tajribasida qiyinchilikni yengib, asta-sekin muvaffaqiyatga erishgan tengdoshni kuzatgan bolalarning o‘ziga ishonchi va natijasi xatosiz ishlaydigan modelni kuzatganlarnikidan yuqori chiqqan (Schunk et al., 1987).

Bundan mehnatsevarlik uchun aniq xulosa kelib chiqadi: misol qahramoni qiyinchilik ko‘rgan, xato qilgan va ishni davom ettirgan bo‘lishi kerak. Bag‘rikenglik uchun esa misolda haqiqiy kelishmovchilik bo‘lishi lozim, ya’ni qahramon o‘zgacha fikrli yoki

boshqa madaniyatdagi odam bilan to‘qnash kelib, munosabatni buzmay yechim topgan vaziyat.

Ikki usulning ta’sir yo‘llari. Misol kuzatish, havas va taqlid jarayonini ishga tushiradi (Bandura, 1977; Kristjánsson, 2017). U o‘quvchiga nimaga intilishni ko‘rsatadi, lekin uni kuzatuvchi holatida qoldiradi. “Art-fest” o‘quvchini faoliyatga olib kiradi, ammo aniq axloqiy mazmun bo‘lmasa, oddiy ko‘rik-tanlovga aylanib ketadi. Festivalda o‘quvchi turli fikrli tengdoshlar bilan umumiy maqsad yo‘lida ishlaydi, qoralama tayyorlab, uni qayta ishlaydi va muddatga yetkazadi. Shu tariqa misol ko‘rsatgan xulq amalda sinaladi.

Model. Natijalar to‘rt bosqichli modelga birlashtirildi (1-jadval). U bitta darsga emas, 3–4 haftalik tarbiyaviy loyihaga mo‘ljallangan, chunki ijodiy ishni qayta ishlash va xatoni tuzatish uchun vaqt kerak.

1-jadval. Bag‘rikenglik va mehnatsevarlikni shakllantirish modeli

Bosqich	O‘quvchi faoliyati	O‘qituvchi vazifasi	Kuzatiladigan ko‘rsatkichlar
1. Misolni tahlil qilish	Qahramon duch kelgan qiyinchilik va kelishmovchilikni topadi; “men uning o‘rnida nima qilardim?” savoliga javob beradi	Qiyinchilik va kelishmovchilik ko‘rinadigan, o‘quvchiga yaqin misollar tanlaydi	Qahramon xulqini sabablar bilan izohlaydi, o‘z tajribasi bilan solishtiradi
2. Ijodiy talqin	Aralash guruhda misolni rasm, sahna yoki she’rga aylantiradi; vazifalarni taqsimlaydi; ish kundaligini yuritadi	Guruhlarni do‘stlik doirasidan tashqarida tuzadi; qoralamaga fikr bildiradi	Ulushini muddatida bajaradi; fikr-mulohazadan so‘ng ishni qayta ishlaydi; guruh qaroriga qo‘shiladi

3. Art-fest	Ishini taqdim etadi; boshqa guruh ishiga qoidalar asosida fikr bildiradi	Qoidalarni kiritadi: fikr shaxsga emas, ishga qaratiladi, avval kuchli tomon aytiladi	Tanqidni ishga qaratadi; boshqa guruh g‘oyasini xolis qayta aytib beradi
4. Refleksiya	Kundalik asosida qayerda qiynalganini, nimani o‘zgartirganini va guruhdoshidan nimani o‘rganganini yozadi	Natijani emas, jarayonni baholaydi	O‘z xatosini nomlaydi; tengdoshining hissasini tan oladi

Baholash. Ijodiy ishning badiiy sifati baholanmaydi. Badiiy qobiliyat o‘quvchilarda notekis, uni baholash esa mehnatsevarlik haqidagi loyiha mazmuniga zid bo‘lardi. Baholash ish kundaligi, o‘qituvchining 1-jadvaldagi ko‘rsatkichlar bo‘yicha kuzatuvi va o‘quvchilarning bir-birining hissasiga bergan bahosiga tayanadi.

MUHOKAMA

Modelning bag‘rikenglikka oid qismi G. Olportning aloqa gipotezasiga mos keladi: turli guruh vakillari orasidagi aloqa teng maqom, umumiy maqsad, hamkorlik va rahbariyat qo‘llab-quvvatlashi sharoitida xurofotni kamaytiradi (Allport, 1954). Ijodiy talqin bosqichidagi aralash guruhlar shu shartlarga javob beradi. T. Pettigryu va L. Tropp 500 dan ortiq tadqiqot meta-tahlilida aloqaning ta’sirini tasdiqlagan va Olport shartlari bajarilganda u kuchliroq bo‘lishini ko‘rsatgan (Pettigrew & Tropp, 2006). Bolalar va o‘smirlar uchun dasturlar meta-tahlilida ham bevosita aloqa hamda empatiya va nuqtai nazarni anglash mashqlari eng samarali bo‘lib chiqqan, lekin ta’sir xulqqa qaraganda bilim va fikrlarda kuchliroq bo‘lgan (Beelmann & Heinemann, 2014). Modelda ko‘rsatkichlar so‘rovnoma javobi emas, xatti-harakat shaklida yozilgani shu bilan bog‘liq.

San’at ta’limi bo‘yicha dalillarni ehtiyotkorlik bilan talqin qilish kerak. J. Grin va hammualliflari tadqiqotida o‘quvchilar jonli spektaklni tomosha qilgan, shu asarning film

shaklini ko‘rganlarda esa ijobiy ta’sir kuzatilmagan (Greene et al., 2018). “Art-fest” esa tomoshaga emas, ijod va taqdimotga asoslangan. Boshqa guruh ishini diqqat bilan ko‘rib, uni xolis qayta aytib berish talabi shu farqni qisman qoplash uchun kiritildi, ammo bu taxmin tajribada tekshirilishi kerak.

Misollar orqali o‘qitishning ham chegarasi bor. K. Kristyansson havas va taqlidni farqlaydi: havas zavq bag‘ishlaydi, lekin xulq o‘zgarishi uchun o‘quvchi namunaga o‘xshab harakat qilishni xohlashi va buni o‘zi uchun mumkin deb bilishi kerak (Kristjánsson, 2017). Modelning ikkinchi va uchinchi bosqichlari uyg‘ongan hissiyotni ishga aylantirish uchun kerak.

Mehnatsevarlikni o‘lchash ham munozarali. A. Dakvort va hammualliflari uzoq muddatli maqsad yo‘lidagi qat’iyatlilikni (grit) qobiliyatdan tashqari muvaffaqiyatni bashorat qiluvchi omil sifatida taklif qilgan (Duckworth et al., 2007). M. Krede va hammualliflari esa meta-tahlil asosida bu tushuncha vijdonlilikka juda yaqinligini va ta’siri ortiqcha baholanganini ko‘rsatgan (Credé et al., 2017). Demak, o‘quvchiga “dangasa” yoki “mehnatkash” degan tamg‘a bosish o‘rinli emas, mehnatsevarlikni muayyan vaziyatdagi xatti-harakat, masalan ishni qayta ishlash yoki muddatga yetkazish orqali kuzatish ishonchliroq.

Natija ko‘p jihatdan usul qanday amalga oshirilishiga bog‘liq. “Art-fest”da festival shakli raqobatni kuchaytiradi, kattalar esa chiroyli natijani kutadi. Shunda ishni eng iste’dodli o‘quvchi bajarib, qolganlar kuzatuvchiga aylanadi. G‘oliblarni aniqlamaslik va jarayonni baholash bu xavfni kamaytiradi, ammo butunlay yo‘q qilmaydi.

Cheklovlarga kelsak, model tajriba-sinovdan o‘tkazilmagan. Tahlil qilingan tadqiqotlarning aksariyati AQSh va Yevropada bajarilgan va ularda bag‘rikenglik ko‘proq etnik guruhlararo munosabat sifatida o‘rganilgan. O‘zbek maktabida fikr, qiziqish va ijtimoiy kelib chiqishdagi farqlar ko‘proq uchrashi mumkin, shuning uchun natijalarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘chirib bo‘lmaydi.

XULOSA

Misollar orqali o‘qitish va “Art-fest” bag‘rikenglik va mehnatsevarlikka turli yo‘l bilan ta’sir qiladi. Birinchisi xulq namunasini beradi, ikkinchisi uni birgalikdagi ijodiy ishda sinab ko‘rish imkonini yaratadi. Alohida qo‘llanganda namuna kuzatuv bilan qolib ketadi, festival esa axloqiy mazmundan uzilib, ko‘rik-tanlovga aylanadi. Misolda qahramonning yutugidan ko‘ra qiyinchilikni qanday yengganini ko‘rsatish va o‘quvchiga yaqin tengdoshlar misolidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Misolni tahlil qilish, ijodiy talqin, Art-fest va refleksiya bosqichlaridan iborat model 3–4 haftalik loyiha sifatida “Tarbiya” darslari va sinf rahbari faoliyatida qo‘llanishi mumkin. Unda badiiy natija emas, jarayon va xatti-harakat ko‘rsatkichlari baholanadi. Keyingi vazifa modelni 5–9-sinflarda nazorat guruhi bilan solishtirgan holda tajriba-sinovdan o‘tkazish va kuzatuv varaqasi, ish kundaligi hamda tengdoshlar bahosini birlashtirgan diagnostika vositalarini ishlab chiqishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Beelmann, A., & Heinemann, K. S. (2014). Preventing prejudice and improving intergroup attitudes: A meta-analysis of child and adolescent training programs. Journal of Applied Developmental Psychology, 35(1), 10–24. https://doi.org/10.1016/j.appdev.2013.11.002

2. Bowen, D. H., & Kisida, B. (2023). Investigating the causal effects of arts education. Journal of Policy Analysis and Management, 42(3), 624–647. https://doi.org/10.1002/pam.22449

3. Credé, M., Tynan, M. C., & Harms, P. D. (2017). Much ado about grit: A meta-analytic synthesis of the grit literature. Journal of Personality and Social Psychology, 113(3), 492–511. https://doi.org/10.1037/pspp0000102

4. Duckworth, A. L., Peterson, C., Matthews, M. D., & Kelly, D. R. (2007). Grit: Perseverance and passion for long-term goals. Journal of Personality and Social Psychology, 92(6), 1087–1101. https://doi.org/10.1037/0022-3514.92.6.1087

5. Greene, J. P., Erickson, H. H., Watson, A. R., & Beck, M. I. (2018). The play's the thing: Experimentally examining the social and cognitive effects of school field trips to live theater performances. Educational Researcher, 47(4), 246–254. https://doi.org/10.3102/0013189X18761034

6. Han, H., Kim, J., Jeong, C., & Cohen, G. L. (2017). Attainable and relevant moral exemplars are more effective than extraordinary exemplars in promoting voluntary service engagement. Frontiers in Psychology, 8, 283. https://doi.org/10.3389/fpsyg.2017.00283

7. Klafki, W. (2000). Didaktik analysis as the core of preparation of instruction. In I. Westbury, S. Hopmann, & K. Riquarts (Eds.), Teaching as a reflective practice: The German Didaktik tradition (pp. 139–159). Lawrence Erlbaum.

8. Kristjánsson, K. (2017). Emotions targeting moral exemplarity: Making sense of the logical geography of admiration, emulation and elevation. Theory and Research in Education, 15(1), 20–37. https://doi.org/10.1177/1477878517695679

9. Lin-Siegler, X., Ahn, J. N., Chen, J., Fang, F.-F. A., & Luna-Lucero, M. (2016). Even Einstein struggled: Effects of learning about great scientists' struggles on high school students' motivation to learn science. Journal of Educational Psychology, 108(3), 314–328. https://doi.org/10.1037/edu0000092

9. O‘zbekiston Respublikasi. (2020a). O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ-637-son “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. https://lex.uz

10. O‘zbekiston Respublikasi. (2020b). O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son “Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. https://lex.uz/uz/acts/-4885018

11. Pettigrew, T. F., & Tropp, L. R. (2006). A meta-analytic test of intergroup contact theory. Journal of Personality and Social Psychology, 90(5), 751–783. https://doi.org/10.1037/0022-3514.90.5.751

12. Sanderse, W. (2013). The meaning of role modelling in moral and character education. Journal of Moral Education, 42(1), 28–42. https://doi.org/10.1080/03057240.2012.690727

13. Schunk, D. H., Hanson, A. R., & Cox, P. D. (1987). Peer-model attributes and children's achievement behaviors. Journal of Educational Psychology, 79(1), 54–61. https://doi.org/10.1037/0022-0663.79.1.54